



Go'zal va betakrorimsan, muqaddas
Vatanim, jonim senga fido,
O'zbekistonim!



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

XUSHXABAR

O'ZBEKISTON YOSHLARINING YANA BIR MUVAFFAQIYATI

Ushbu sonda:

**«MUSTAQILLIK
MADHI BOLALAR**

IJODIDA»
Respublika ijodiy
ishlar tanloviga
2-bet

AKBARJON
KUTUBXONASIDA
«Tong yulduzi»-
ning 560 ta soni
bor **3-bet**



KATTA
MUSOBAQA
START OLDI
7-bet



Shu yilning 23-31-iyul kunlari Gruzija poytaxti Tbilisi shahrida kimyo fani bo'yicha o'tkazilgan 48-Butunjahon olimpiadasida O'zbekiston yoshlari ishtirok etib, bitta kumush, ikkita bronza medal bilan qaytishdi.

Nufuzli intellektual bellashuvda 75 davlatdan uch yuzga yaqin o'quvchi qatnashdi. Olimpiadada Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi o'quvchisi Sarvar Shoyunusov kumush, Samarqand davlat tibbiyot instituti qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchisi Jahongir Fax-

riyev hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi akademik litsey o'quvchisi Charos Omonova bronza medalni qo'lga kiritdi. Quvonarlisi, bu yoshlar joriy yilning may oyida Rossiya-da o'tkazilgan kimyo fani bo'yicha 50-Xalqaro Mendeleev olimpiadasida ham sovrindorlar safidan joy olgan edi.

– Litseyimizda «Olimpiadachilar maktabi» to'garagi tashkil etilgan. Unda shu kunga qadar turli olimpiadalarda yutuqlarga erishgan sobiq o'quvchilarimiz bizlarga nazariy va amaliy jihatdan fan sirlarini o'rgatishmoqda, – deydi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi o'quvchisi Sarvar Shoyunusov. – Biz bundan-da yuksak marralarni egalashimiz uchun izlanishda davom etaveramiz.

O'zbekiston Mustaqilligining 25 yilligi oldidan

**Surxondaryo viloyatining
Termiz shahrida**

«TADBIRKOR QIZNING ENG YAXSHI LOYIHASI» tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi

«Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida o'tkazilgan tanlovda ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalari taqdimotini o'tkazgan 42 nafar bitiruvchi qizga moliya muassasalaridan imtiyozli kredit ajratilishini kafolatlovchi sertifikatlar topshirildi. «Ishlab chiqarish borasida eng yaxshi tadbirkor qiz», «Servis sohasida eng yaxshi tadbirkor qiz», «Qishloq xo'jaligi sohasida eng yaxshi tadbirkor qiz» nominatsiyalarida 1- va 2-o'rinlarni egallagan qizlar tanlovning mamlakat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Termiz tumani Yangiariq qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji bitiruvchisi Tamanno To'rayevaning asalari parvarishi bilan shug'ullanib, aholiga tabiiy, sifatli va arzon oziq-ovqat mahsuloti yetkazib berishga mo'ljallangan loyihasi 1-o'ringa munosib topildi. Endi yosh tadbirkor tijorat bankidan oladigan 6 million so'm imtiyozli kredit mablag'i hisobiga 25 uya asalari oilasi parvarishini yo'lga qo'yadi.



Joylarda bayramga bag'ishlangan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirilmoqda. Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanida bo'lib o'tgan yoshlar forumi «Mustaqillik milliy tiklanish va yuksalishdir!» shiori ostida tashkillashtirildi.

KIM EDIG-U KIM BO'LDIK?!

Tadbirda el suygan adiblar, olimlar, rassomlar, hunarmandlar, partiya faollari va yoshlar ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar bugungi avlod hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallashi, ilm-fan, madaniyat, sport va boshqa sohalarida iste'dod va salohiyatini namoyon etishi uchun davlatimiz tomonidan keng sharoitlar yaratilganligini ta'kidlashdi. Adabiyot ixlosmandlari she'riyat kechasidan bahramand bo'lishdi. Hunarmandlikka oid durdona asarlar ko'ngillarni xushnud etdi. Qo'li gul pazandalarning mazali pishiriqlaridan totib ko'rishdi.

Forum doirasida yoshlarning xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilikka oid ijodiy ishlar ko'rgazmasi namoyish etildi. Iste'dodli yoshlarni o'zida jamlagan ushbu anjuman olam-olam taassurotlarga boy bo'ldi.

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

Respublika ijodiy ishlar tanloviga

OZODLIK

Dam olish kuni edi. Ertalab ko'chaga chiqsam, mahalladagi bolalar darvozamiz oldiga yig'ilib olishibdi. Hayron bo'ldim. Qarasam, yon qo'shnimiz Salim qayerdandir ushlab olgan kabutarning uchib ketmasligi uchun oyog'iga ip bog'lab tomosha ko'rsatayotgan ekan.

Oppoq kabutar nuqul qanotlarini

yoziq uchishga harakat qilar, biroq oyog'idagi tushov uchishiga xalaqit berardi. Kabutar yana va yana qanot qoqdi, lekin ucha olmadi. Bu holat ko'p bora takrorlandi. Uning munchoq ko'zlari nimanidir ilinjida. Atrofdagi bolakaylarning har biri uni siypalaydi. Kabutar bo'lsa sirlangan xumchaga tushgan sichqondek o'ziga bir najot yo'li qidirar edi. Men bunday tomoshaga chiday olmadim. Yugurib borib, Salimning qo'lida-

gi ipni oldim-da, kabutarning oyog'idan yechib yubordim. Kabutar «pir» etib uchib ketdi. Salim va boshqa bolalar menga bu nima qilganing, deb xafa bo'lishdi. Men bo'lsa bu shunchaki ozodlik, deya javob berib, uyga kirib ketdim. Nima uchundir hayajonlanar, ich-ichimdan quvonch va shodlik otilib kelayotgandek edi.

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Rasm muallifi EICHIN MURODOV,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

ON-LAYN MULOQOT –

O'zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi anjuman

Poytaxtimizda joylashgan «Yoshlar ijod saroyi»da «Mustaqillik – mening taqdirimda» mavzusida on-layn muloqot tashkil etildi.

«Kamolot» YOIH tomonidan tashkil etilgan «Kamolot»da mehmonda loyihasida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Nilufar Abbosxonova, «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni sovrindori Bobur Zokirov ishtirok etdi.

«Ziyo globus» korxonasi rahbari Bobur Zokirov so'zga chiqib, yurtimizda qad rostlagan, zamonaviy ko'rinish kasb etgan ilm maskanlari va sport inshootlari yoshlar kamolotiga xizmat qilayotgani, bugungi kun yoshlari o'zlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, biznes, fan, madaniyat, sport sohalarida ulkan yutuqlarga erishayotgani haqida to'xtaldi.

Qizig'i shundaki, on-layn muloqot orqali respublikamizning chekka hududlaridagi o'quvchilar ham o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

...Men sendek paytimda paxtazordan beri kelmasdim. Tong saharda ota-onam ketmonini olib dalaga ketar, uyda esa yetti bola eshikka qarab o'tirardik. U paytlarda chiroq qayda, bolam, fonus yoqardik. O'choqda ovqat pishirib, samovarda choy qaynatardik. Kech kuzda esa uyimiz orqasiga ko'sak to'kib ketishardi. Biz norasidalar ochilmay qolgan ko'saklarni chuvirdik. Qo'llarimiz qonab ketsa-da, ko'sak chuvishdan to'xtamasdik... Paxta mavsumi boshlangach, o'qishga bormasdik. Och-nahor, egnimiz yupun, kimdir dalaning o'rtasida hushini yo'qotgan, yana birov tirnalgan qo'llariga malham bosardi...

DILLARDA VATAN MADHI

Bu ertak emas, aziz tengdoshim, bu – buvijonimning menga aytib bergan, boshidan o'tkazgan kunlari. Ular o'tmishda ana shunday yashashgan. Bugun u kunlar tarixga aylangan bo'lsa-da, buvijonlarimiz, bobojonlarimiz uni yaxshi eslashadi. O'sha kunlarni taqqoslashadi. Har kuni televizorda amalga oshirilayotgan ishlarni tomosha qilayotgan bobom, «Shu damlarni ko'rganimizga shukur», deb qo'yadilar. Obod bo'layotgan yo'llar, Istiqlolimizning 25 yilligiga topshirilishi ko'zda tutilayotgan ko'priklar, nshootlar, ularni ko'rib turib, hayratlanmay bo'ladimi, axir?!



Mustaqillik sharofatini bobomning duolarida, buvimning nigohlari-da ko'raman, ular naqadar ma'noli boqadi. Mustaqillik kunlarini ko'rganlariga, shukunlarga yetganlariga, bizning kamolotimizni ko'rayotganlariga shukronalar aytishadi. Biz esa bu kunlarni qadriga yetib, ona Vatanimiz ravnaqi, taraqqiyoti uchun hissamizni qo'shishimiz, Vatan taqdiriga o'z taqdirimiz singari mas'uliyat bilan qarashimiz shart.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Toshkent matbaa-noshirlik kolleji 1-bosqich o'quvchisi

ONA – MO'TABAR ZOT

Ona! Ushbu sehrlil, jarangdor so'z ilk bor farzand tilidan otilib chiqadi. Bu ulug' so'zning tub mohiyatini afsona-yu haqiqatlarda anglab yetdik. Ona – borliqni, dunyoni yaratadi. Jajji go'dakning murg'ak qalbida bu so'z takror va takror tug'yon uradi.

Onalar farzandini dunyoga keltiradi, oq sut berib mehr-la tarbiyalaydi. O'zi yemay yediradi, kiymay kiyintiradi. Kasal bo'lsak, qoshimizda mijja qoqmay, o'zi ham barobar dard chekadi. Shunday ekan, onalarimizdan bir umr qarzdor ekanimizni unutmaylik. A'lo baholarga o'qib, turli kasb-hunarlarini egallab, ishonchlarini oqalaylik. Onajonlarimizni hamisha baxtli qilaylik, e'zozlaylik. Yuksak mehrimizni hech qachon ulardan ayamaylik!

Asalbonu RAJABALIYEVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabi o'quvchisi

AKBARJON KUTUBXONASIDA «Tong yulduzi»ning 560 ta soni bor

Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi 49-ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan maxsus maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Akbar QUTLIMURODOV kitobsevar, faol o'quvchilardan biri. U fanlardan a'lo baholarga o'qish bilan birga, rasm chizish, turli rusumdagi mashinalar modelini yig'ib, kolleksiya qilishga qiziqadi.

Yozgi ta'tilning birinchi oyini Xonqa tumanidagi «Sog'lom avlod» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida mazmunli o'tkazibdi. Jizzax viloyatining Zomin sanatoriyasida buvisi bilan miriqib

dam olib, uyga qaytishayotganda esa ulug' bayram ostonasida turgan poytaxtni tomosha qilib, tahriyatimizda ham mehmon bo'lishdi.

Boshlang'ich sinflarda o'qib yurganidayoq, kitobga alohida mehr qo'ygan Akbarjon kelgusida jurnalist bo'lishni orzu qiladi. Shu bois yosh iqtidor egasi kichik-kichik she'rlar, hikoyalar yozishni mashq qila boshladi. Yozgan hikoyalari viloyat gazetalarida tez-tez chop etiladigan bo'ldi. Bugungi kunda u «Xonqa hayoti» gazetasi qoshida tashkil etilgan «Mahorat maktabi»-da muharrir Muhabbat Safayevadan, «Xorazm ziyokori» gazetasi muharriri Ismoil Olloberganovdan saboq olib kelmoqda. May oyining so'nggi kunlarida «Mahorat maktabi»ning faol a'zosi sifatida o'z hikoyalari bilan tengdoshlariga namuna bo'lgani uchun faxriy yorliq bilan mukofotlanibdi.

O'tgan o'quv yilida tarix fanidan o'tkazilgan «Bilimlar bel-

«Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovida 3-o'rinni egallabdi.

– Kitob o'qish jon-u dilim, – deydi mehmonimiz biz bilan suhbatda. – Uymizda kichik kutubxonamiz bor. 3-sinfda o'qiydigan singlim Manzura ham undan foydalanmoqda. Bu yerda turli-tuman badiiy kitoblari qatori «Tong yulduzi»ning 560 ta sonini ham yig'ib qo'yganman. Yaqinda Daniyel Defoning «Robinzon Kruz» asarini o'qib chiqdim. Mening eng sevimli adiblarimdan biri Xudoyberdi To'xtaboyev bo'ladi. Ularning chin muxlisi sifatida, har bir yangi asarini zo'r qiziqish bilan o'qiyman. Toshkent shahriga kelganimizda, sevimli yozuvchim bilan uchrashib, suhbatlashmoqchiman.



KITOB – QALB QUYOSHI

Kitobdagi har bir so'z, Va har bitta nuqtasi, Haqiqatdan iborat, Go'yo uning hammasi.

Kitobdagi rivoyat, Ertak hamda afsona. Haqiqatdan olinar, Nur sochishi bilinar.

Shuning uchun bolalar, Ko'proq kitob o'qinglar. Kitob – bilim manbai, Doim yodda tutinglar.

Akbar QUTLIMURODOV

Kitobga chin dildan ixlos qo'ygan, kelajakda ustozlari singari yetuk jurnalist bo'lish orzusida izlanayotgan Akbarjonga bizning ham havasimiz keldi. Istiqlol farzandlarining olg'a tashlangan dadil qadamlarini ko'rib, ko'nglimiz zavqqa to'ldi.

Dilorom HOTAMOVA



Akbarjon (o'rtada) yaqinlari bilan tahririyatda mehmon bo'lishdi.

O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu borada kutubxonalar ham ko'plab yutuqlarga erishilmoqda.

YANGICHA XIZMAT KO'RSATISH



Respublika bolalar kutubxonasida «Kitobxonlarga yangi texnologiya asosida kutubxona xizmatini ko'rsatish usullari» mavzusida seminar tashkil etildi.

Unda ARMLar faoliyatini talab darajasida tashkil etish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish va ularning bilim olishlari uchun zamonaviy uslublarni amaliyotga tatbiqi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimga keng joriy qilish kabi masalalar yuzasidan qator ma'ruzalar tinglandi.

Anjumanda asosan, elektron kutubxona, uning yaratilish jarayonlari va xizmatlari, kutubxona veb-sayti hamda zamonaviy tezkor texnologiyalar borasida so'z yuritildi. Shuningdek, elektron kutubxona xizmatlari, resurslari, veb-saytlari, avtomatlashtirish tizimi va uning reklamasi haqida so'z yuritildi.

Komila BEKOVA,
Respublika bolalar kutubxonasi xodimi

Bugun ishdan ertaroq qaytdim. Kun shomga og'ayotganiga qaramay, issiqning tafti hali bosilmagan. Katta ko'chadan uyimiz tomon burilganimga, yo'l yoqasida turgan uch-to'rtta bolakayga ko'zim tushdi. Bu zumrashalarning diqqatimni tortishiga sabab, ulardan biri ingichka yaltiroq sim bilan bo'ynidan boylanagan bir kuchukchani ushlab turardi. Jonivorlarni yaxshi ko'rganim uchun beparvo o'tib ketolmadim.

— Kuchukcha kimniki? — dedim ularning salomiga alik olib.

— Meniki, — dedi simni ushlab turgan bola.

— Buning hali kichkina. Boyliqda tutish shart emas. Bunaqada mayib bo'lib qolishi hech gapmas.

Shu payt kuchukcha men tomon intilgandi, egasi oyog'i bilan uni orqaga turtib yubordi. Miitivoy uch-to'rt umbaloq oshib tushdi. Uning bu qilg'ini ko'rib, ko'nglimda allaqanday g'ashlik paydo bo'lib, ulardan uzoqlashdim. Sal yurib, ko'cha eshigi oldidagi supada salqinlab o'tirgan Sayfullo bobodan hol-ahvol so'radim. Saksondan oshganiga qaramay, hali-

yam bir yigit quvvati bor bobo turli ma'rakalarda barchamizga boshqosh bo'lib kelardi.

— Anavi bolachalar nimani sudrab yurishibdi? — so'radi bobo biz tarafga kelayotgan bolalarga ishora qilib.

— Bir kuchukchani topib olishibdi. Hali juda kichkina.

— O'tirib, biroz dam oling, domla. To'rtta gurgung qilamiz.

ortimdan boboning momaqaldiroqdek gulduragan ovozi eshitildi.

— Hoy bolalar, bu yoqqa kelinglar-chi.

Hovliga kiringach, peshvoz chiqqan yaqinlarim bilan ko'rishyapman-u ko'z oldimdan kuchukchanning isisqidan hansirab chuqur-chuqur nafas olishi ketmasdi. Uyda o'tirolmasligim aniq edi.

Ko'chaga chiqib bobo tomon yurarkanman, boyagi bolalar shundoq yonimdan o'tib qolishdi. Haligi sim tutgan bola kuchukchani avaylabgina bag'riga bosib olgandi. Sayfullo bobo aytganidek, supa atrofiga ko'loblab suv sepiilibdi.

— Bolalarni qanday qilib yo'lga soldingiz, ko'rib hayron qoldim... — deya boboning yoniga cho'kdim.

— Ularga ancha yil ilgari bo'lib o'tgan bir voqeani so'zlab berdim, — dedi hamsuhatim menga choy uzatarkan.

...Boboning o'sha paytlar qurilish korxonasida ishlab yurgan kezlari ekan. Hammadan oldin ishga kelganida unga ko'pincha qorovulning iti peshvoz chiqib, dumini likillatganicha kutib olarkan. Amakining yonida esa it uchun, albatta, biror yegulik bo'larkan. Bir kuni amaki odatdagidan ertaroq

HORDIQ CHIQRIB, HUNAR O'RGANAMIZ, — deydi Surxondaryoning Qiziriq tumani yoshlari

Bugun mazkur tumandagi «Barkamol avlod» bolalar markazi o'quvchilar bilan to'la. Sababi, bu yerda bolalarning iqtidorini sinovdan o'tkazish maqsadida ko'rik-tanlov o'tkazilyapti.

Shu kungacha markazda «Quvnoq startlar», «Kim ephil-u kim chaqqon?», «Arqon tortish», «Yugurish» musobaqalari o'tkazilib, unda o'quvchilarning ephilligi sinovdan o'tkazildi.

— Bugungi yoshlar juda tirishqoq, ularning zavqli onlarini ko'rib, ko'zlarimiz quvnaydi. Bolajonlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularga ham hunar, ham maroqli hordiqni tashkil-lashtirish maqsadida, bor kuch-g'ayratimizni ishga solyapmiz, — deydi markaz rahbari Nasiba opa Xudoymurodova.

— Bolalarning til o'rganishga qiziqishlarini inobatga olib, «Ingliz tili» hamda «Kompyuter grafika-si» to'garagi a'zolari o'rtasida ko'rik-tanlov o'tkazildi. Unda to'garak a'zolaridan Yashnar Begim-qulov, Og'abek Abdusoatov, Asad Hamroyevlar faol qatnashishdi.


Shuningdek, shaxmat-shashka musobaqasida Odilbek Abrayev, Aziz Poyonov, Shahzod Eshmurodov, Muxlisa Turdimurodova, Marjona To'laganova, Maftuna Ziyodullayeva singari iqtidorli o'quvchilar aql gimnastikasini qay darajada o'zlashtirganliklarini namoyish qilishdi.

«Tasviriy san'at» to'garagi a'zolari o'rtasida «Tasavvurim-dagi olam» mavzusidagi ko'rik-tanlov bolalar ijodini yanada sayqallashtirdi, desam, mubolag'a bo'lmaydi. 21 ta to'garak a'zolari ishtirok etgan mazkur tanlovda o'quvchilarning ijodiy ishlari ko'rib chiqilib, Islom Sharopov 1-, Gulsevar Melisova 2-, Iroda Choriyeva 3-, Asilabonu Ergasheva esa 4-o'ringa munosib topildi. O'quvchilar orasida milliy o'yinlarimizni ommalashtirish, ularni milliy qadriyat va urf-odatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida milliy o'yinlarimiz musobaqalarini tashkil etib turamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bolajonlarimiz ta'til kunlarini markazimiz qoshida maroqli o'tkazishmoqda. Mana, hozir yana yangi tadbir o'tkazish taraddudidamiz, — deya so'zini yakunladi Nasiba opa.

Chindan ham bugun bolajonlarimizning bo'sh vaqtini maroqli o'tkazishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo. Har bir viloyat, har bir tumanda tashkil etilgan «Barkamol avlod» markazlari bunga yorqin misoldir.

Ozoda TURSUNBOYEVA



— Mayli, uyga kirib kiyimlarimni almashtirib chiqay.

— Bo'пти. Chiqing, nevaralarim hamma yoqqa suv sepib, muzdek qilib qo'yishadi.

Uyim tomon yo'l olarkanman,

Yusuf OG'AJA

USTOZ HAQIDA SO'Z



Odatdagi ish kunlaridan biri edi. Shu payt eshik ochilib, xonaga bir qizcha onasi bilan kirib keldi.

— Assalomu alaykum, biz Samarqanddan keldik, Ashurali Jo'rayev kerak edi, — deydi qizaloq ohistagina. Vaqtni qizg'onib, tezda ustozning ish joyini ko'rsatib yuboraman va yana o'z ishimda davom etaman. Shu pallada telefon qo'ng'irog'i jiringlaydi:

— «Gulxan» jurnalining telefon raqamini aytib yuborolmaysizmi, bizga Jo'rayev kerak edi...

Ustozni so'rashyapti, deyman-u, jurnal telefon raqamini qidirishga tushaman...

Kechki tomon taniqli yozuvchilarimizdan biri eshik qoqadi. U kishining tashrifidan xursand bo'laman va salom-alikdan so'ng, mehmonim: «Ashuralining oldiga kelgan edim», deydi.

Ha, atrofdagilarga kerak bo'lish qanday baxt-al Zero, adib «Sahifaga sig'magan satrlar» asarida e'tirof etganidek, «Yaxshi odam — asal-arilar arimaydigan gulday aziz».

HAMJIHATLIK

Ayni obuna pallas. Sentyabr oyining oxirlarida Qashqadaryo viloyatiga xizmat safariga bordim. U yerda viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining Axborot xizmati rahbari Sevin Ochilov bilan uchrashib, «Tong yulduzi» gazetasidan kelganimni aytdim.

Shunda u kishi o'tgan hafta «Gulxan» jurnalidan, kecha esa «G'uncha»dan kelishdi, dedi tashrifim malol kelganday. Men ham biroz noqulaylik sezdim. Chunki menga hamroh bo'lib maktablarga borish uchun yana bir xodim ishdan qolishiga to'g'ri kelayotgan edi-da.

O'shanda bolalar nashrlari xodimlari birgalikda xizmat safariga chiqsa, yaxshi bo'lardi, degan xayol keldi,

ammo buni tezda unutdim.

Yillar o'tdi. «Gulxan» jurnaliga Ashurali Jo'rayev Bosh muharrir bo'lib keldi. Uning birinchi ezgu ishlaridan biri bolalar nashrlarini birlashtirdi, do'stlashtirdi. Tahririyat xodimlari birgalikda Respublika ta'lim muassasalarida ijodiy uchrashuvlar o'tkazadigan bo'ldi. Ungacha esa hatto bir qavatda xizmat qilsak-da, bir-birlarimiz bilan yaqindan tanish ham emas edik.


Ustozning sa'y-harakati bilan jamoalar hamfikrlilikda ish olib bordi. Bu esa bolalar nashrlarining maqsad-vazifasi bir ekanligini tushunishimizga turtki bo'ldi. Hamjihatlikda faoliyat yuritishga nima yetsin!

Feruza SOYIBJON qizi

Biz, ko'p ming sonli muxlislarimiz va ijodiy jamoamiz nomidan umrining yetuklik, komillik va fozillik fasliga yetgan ustozimiz — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali Jo'rayevni tavallud ayyomi bilan qizg'in muborakbod etamiz!

JALOYIR

Bolaligimda Jaloyir qishlog'i ko'zlarimga juda katta bo'lib ko'rinardi. Xayolimda uning poyoni, chek-u chegarasi yo'qday edi. Rahmatli ustozimiz — jug'rofiya muallimi Bahron aka Mardonov ko'rsatgan globusdan ham ulkan edi, go'yo.



Yigitlik paytimda Jaloyir yanada go'zal, yanada tarovatli, cho'g'lari o'chmaydigan olov bo'lib ko'rindi. Uning yantoqlari eng chiroyli gulga o'xshardi, oyoqlarimga kirsa, huzur qilardim. Qasoba kanalida jo'ralarim bilan cho'milgandagi rohatni qaytib hech bir joyda ko'rmadim. Jaloyirlik bir suluvning yuragiga yuragimni umrbod boyladim...

Endi Jaloyir menga bobomday donishmand, buvinday mehribon bo'lib ko'rinadi. Ota-onamday yo'llarimga zor-zor termuladi. Bu o'tib ketgan azizlarning ruhlariga mudom duo qilaman.

Jaloyir hamisha yaxshilik va mehrdan saboq berib keladi...

Jaloyir — meni mayda tuyg'ularga o'ralashib yurishimni istamaydi. U hamon keng va ulug' bo'lishga chorlaydi. O'ylab ko'rsam, Jaloyir onajonim, jonajonim O'zbekiston ekan!..

Ashurali JO'RAYEVning «Konvert odam» kitobidan olindi

LESSON 99

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

PHRASAL VERBS (Iboralar)

Choose the correct particle to complete each sentence. Choose from the following.

away down in off off on out
up up up

- «Do you know your next-door neighbours?»
«No, they only moved in last week.»
- Can you turn the TV _____ a little bit, please. I'm trying to do my homework.
- Can you turn _____ the volume, please. I want to hear the news.
- He gave _____ playing football last year after breaking his leg.
- How did you work _____ the answer to the math's problem?
- I can't see a thing. I'm going to switch _____ another light.
- I have to clear _____ the mess. Can you help me, please?
- If you make a mistake, just cross it _____ and write the correct answer above.
- She's really happy because she's just found _____ that she's expecting a baby.
- Please switch _____ your engine before you fill your car with petrol.

WHO IS SMART, DO IT FAST!

Country	Nationality	Language
Australia	Australian	...
Brazil	Brazilian	...
Canada	Canadian	...
China	Chinese	...
England	English	...
Germany	German	...
Uzbekistan	Uzbek	...

Uzbek Chinese Portuguese English
English English/French German

Prepared by DINORA

VATANIM – BU SEN O‘ZBEKISTONSAN!

Vatanim – ko‘rkam, ulug‘ bo‘stonsan,
Ko‘klarga intilgan, tengsiz jahonsan.
Tillarda bitilgan go‘zal dostonsan,
Vatanim bu – sen O‘zbekistonsan!

Alpomish, Temuriy avlodlarimiz,
Dunyo tan olgan ajdodlarimiz.
Madhning aytgan jajji bolajonlarmiz,
Vatanim bu – sen O‘zbekistonsan!

Vatanimning ertasi buyuk kelajak,
Yurtim, Mustaqillik bo‘lsin muborak!
Vatanga sadoqat ezgu bir tilak,
Vatanim bu – sen O‘zbekistonsan!

Maftuna RIXSIYEVA,

poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 258-umumta‘lim maktabining 6-«B» sinf o‘quvchisi

(Davomi. Boshi o‘tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO‘XTABOYEV,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

Qor yog‘ib turgan edi. Havo sovuq. Sovqotgan holatda bizni Qo‘qondagi poyezdlar to‘xtaydigan joyga olib kelishdi. Bizga o‘xshagan qulog‘ bo‘lganlar er-u xotin, bola-chaqasi, qarindosh-urug‘lari bilan to‘p-to‘p bo‘lib turishibdi. Yig‘i ovozi olamga sig‘may ketgan. Haftada bir martagina Qo‘qonga poyezd kelar ekan. Ana shu bir vagongina quloqlarni olib ketar ekan. Qolganlari militsionerlar qurshovida loyqa botib, sovuqotib navbat kutarkan.

– To‘xtaboy Nasriddin o‘g‘li. Sora-bibi Erkavoy qizi. Etapga! – dahshatli ovoz eshitildi.

– Orqamdan yur! Atrofga qaramay yur, – hammasidan ham balandroq ovoz eshitildi.

Tamom, deb o‘yladim, demak, otib tashlashga olib ketishyapti. Militsionerlarning to‘rttovini ham yonida to‘punchasi, shaloplab osilgan qilichi turibdi. Demak... biz, u yog‘iga nafas ololmay qoldim.

– Tez yur! Jadalroq yur! – degan ovoz eshitildi. Biqinimga qinidagi qilich dasta tegdi. Xuddi shu payt o‘zimdanda ketayotgan edim, bechora otang mahkam quchoqlab, qulog‘imga «Qo‘rqma, biz qutulyapmiz», deb shivirladi. Shunda g‘alati bir voqea yuz berdi. Kimdir bir otni yetaklab kelib, otangga «Tezroq min», deb buyruq berdi. Otang chaqqon yigit edi. Bir sakrab otga minib oldi. Shoshilib meni orqasiga mindirdi.

– Yapan yo‘lidan ketma!

– O‘qchi yo‘lidan chiqib ol! – degan ketma-ket buyruq ham bo‘ldi.

Bechora otang hayajonda butun vujudi qaltirayapti, «Tog‘ yoqalab ketamiz», deb shivirladi. O‘rtimizda turgan militsioner otga qamchi urdi. Ot sapchib o‘rmondan qo‘zg‘aldi.

Otang bobolarning kabi aqlli, hushyor, fahm-farosatli yigit edi. Bu yerda to‘p-to‘p bo‘lib turgan qulog‘ga ketayotgan boylarning shivir-shiviriga qulog‘ solsa, qaysi birida tilla bo‘lsa, o‘sha boylar bu yerdan qutulib chiqib ketayotgan ekan. Bu ishni qilich taqqan qizil shapkalilarning o‘zi tashkil qilayotgan ekan. Otangda bobokalonindan qolgan chaqaloqning mushtidek keladigan quyma oltin borligini bilardim. Demak, bechora otang qishloqda bo‘lgan tintuvlarda ham

MUSTAHKAM OILA

Yurt tayanchi jamiyatning bir bo‘lagi,
Ertamiz egasi, eng zo‘r tilagi.
Jannatmakon yurtning bizlar yuragi,
Portloq kelajakning ishongan tog‘i.

Mustahkam oilaning tayanchi bizlar,
Barkamol, zehnlil, hur o‘g‘il-qizlar,
Har bir yutug‘idan yayragay dillar,
Xalqiga sadoqat, jon fido qilar.



Zarina AHMEDOVA,

Toshkent pedagogika kolleji o‘quvchisi

BAXTGA TO‘LIQ DIYOR

Erkin, hur O‘zbekiston,
Qutlug‘ ayyom muborak.
Baxtga to‘liq gul diyor,
Sen-chun eng ezgu tilak.

Yuksal cho‘qqilar sari,
Har manziling gul-bo‘ston.
Baxtli bunda yosh-qari,
Ko‘hna yurt, O‘zbekiston!

Xurshida AKBARQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 29-umumta‘lim maktabi o‘quvchisi

ana shu oltinni etigining ichidami, qo‘ltig‘ining tagidami saqlab qolgan ekan. U ana shu oltin evaziga o‘tli ham bo‘libdi. Keyinchalik eshimsam, to Ukrainaning borishimiz ko‘rsatilgan tumaniga tushgunimizcha bizni qochdi, deb gumon qilishmas ekan.

Mingashib olgan otimiz nimjon edi. Buning ustiga qor qalin. Tog‘dagi ba‘zi past-u baland joylarda ot ko‘kragigacha qorga ko‘milib ke-

sezdirmay, egar-jabduqlarini tashlab qo‘ygan ekan. El uyquda payti hech kimga sezdirmay, otga minib, Isfara tomonga yo‘l oldik. Isfarada ham katta bobokalonimizning idorasi, uy-joylari borligini otang bilar edi. Bir necha bor kelganmiz. Karnay-surnay bilan kutib olishgandi. Otangning Isfarada tunashga ko‘ngli bo‘lmadi. Yana uch kecha-kunduz yo‘l bosdik. Eng yomoni kun sayin

tasi boshlandi. Bu yerda ham qulog‘lashtirish ishlari boshlanib ketibdi. Bobongdan qolgan mulk va boyliklar qattiq tartib bilan ro‘yxatga olinibdi. Otangni esa yarim o‘rischa, yarim tojikcha gapiradigan qizil shapkalilar so‘roqqa tutishibdi.

Bir kuni, yarim kechasi eshik taqilladi. Otang ham qattiq uyquga ketmagan edi. Anorvoy amaking eshikni ovozsiz ochib, qulog‘imizga, «Bog‘ tomonda ot tayyorlab qo‘yganman. Xurjuni ham tayyorlab qo‘ydim. Otlaring yurishga yaramaydi. Men o‘zimning baquvvat otimni berdim, lekin uni choptirma. Xotining Sorabibi uch oylik homilador. Mehribon onalar aytishdi»...

Ovoz chiqarmasdan tashqariga chiqdik. Otning egarida ham xurjun osilgan edi. Anorvoy amaki otangning qulog‘iga shivirladi: «Isfara tomonga yurmanglar, Konibodom tomonga ketinglar, Konibodomga ham yetar-yetmas, Qozoqo‘rg‘on degan qishloqqa kiringlar. Sizlarni Hamdamboy degan odam kutadi».

Otamning qo‘liga, nechtaligini bilmayman, kumush yoki oltinni bir siqim tanga berdilar. Ovosiz yig‘ilashib, xayrlashdik.

– Hali aytdim-ku, Rovot bahor va yoz oylarida hayqirib oqadigan soy muzlab qolgan ekan. Soydan o‘tish uchun muzlamagan joy axtarardi, muzlamagan joylardan o‘tayotganda shalabbo bo‘lamiz. Ot chindan ham baquvvat, ancha-muncha chuqurlikni parvo qilmaydi. Silkinib chiqib ketadi. Qishloqqa kunduzi kirib borsa bo‘lardi, lekin bu yerda ham kolxozlar boshlanib ketgani uchun, atrofda qizil shapkalilar ko‘payib ketganidan qo‘rqib, qishloq chekkasida qorong‘i tushishini poyladik. Xudoga shukur, Boybuva yaxshi ekan, xotin, bola-chaqalari bilan yig‘ilashib kutib olishdi. Boshimizga tushgan tashvishni eshitishgan ekan. Kiyim-boshlar berishdi. Shunga qaramay, bu yerdan ham tezroq jo‘nashga to‘g‘ri keldi. Otangning tanishlaridan biri, bobolarimiz bilan bordi-keldi, qilib yuradigan To‘ychivoy akaning qishlog‘i «Tovqishloq» degan joyni mo‘ljalga olib jo‘nadik. To‘ychivoy aka rahmatli otang bilan yoshi teng yigit ekan. Ota va bobolari boy-badavlat o‘tgan. Ularning ham uzoq yurtlarda karvonsaroylari bo‘lgan ekan.

(Davomi bor)



TAGOB QISHLOQ ERTAKLARI

tardi. Otang tushib yetaklab oladi. Meni esa charchab qolasan, deb otdan tushgani qo‘ymaydi. Ot yur olmay qolganda esa bechora otang yelkasiga mindirib oladi.

– Yig‘lamang, yig‘lamang! – deb baqirib, sal bo‘lmasa singilchamni uyg‘otib yuboray dedim.

– Uch kun deganda qalin qorlardan, baland jarlikdan o‘tib Qirg‘izistonning Botkan shahariga yetib bordik. Katta bobongni ish yuritadigan saroyi, chiroyli uylari bo‘lgan ekan. Borib tushdik. Zamonning og‘irligi bu yerga ham yetib kelgan ekan. Otangning qulog‘ qilingani haqidagi gap-so‘zlarni bu yerdagi xizmatkorlar ham allaqachon eshitishgan ekan.

Bu yerda tancha degan narsa yo‘q ekan. Katta ayvonda olov yoqib berishdi. Kiyim-boshimiz qor edi. Qorlar erib, jiqqa ho‘l bo‘ldik. Yechinib, olovda quritdik. Lekin kiyimlarimiz to‘laligicha qurigan yo‘q edi. Bizga bo‘layotgan sovuq muomala yanada yomonlashdi. Sezgir otang oqshom chog‘i ataylab otxonaga kirib otga xashakni ko‘proq soldi. Ularga

qorning qalinlashib borayotgani edi. Hali aytdim-ku, goho otni yetaklab olamiz, goho otang meni yelkasiga mindirib oladi.

Xayriyat, Chorkuda bizni katta hurmat bilan kutib olishdi. Anorvoy aka degan ham ishlarimizni boshqaruvchi, mulkimizga rahbarlik qiluvchi bir kishi borligini otang yaxshi bilarkan. Shu odamning hovlisiga kelib tushdik. Katta bobomdan qolgan uylariga tushishga otangning negadir yuragi dov bermadi. Ehtimol, bu yer ham xavfli deb o‘ylagan bo‘lsa kerak.

Bir kun degandayoq otangni taniydiganlar, mol-u mulkimizga qarab yuradiganlar, bizni mehr-muhabbat daryosida cho‘mtirdilar. Voy, o‘g‘lim, bizni mehmondorchilikka aytishlari, ipakdan to‘qilgan, turli xil sovg‘alar berishlarini aytmasanmi? U yerlarda tancha rasm bo‘lmagan ekan. Har bir uyda olov yoqishadi. Bizni mehmonga aytishsa, uylariga tanchalar qurishadi.

– O‘g‘lim, sabr qil, qo‘lingni musht qilib chidayman deb tur, – endi buyog‘iga baxtsiz kunlarimizning eng kat-



Xabaringiz bor, o'tgan hafta Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida to'rt yillikning eng nufuzli musobaqasi — XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari start oldi.



OLIMPIYA O'YINLARI TARIXIGA NAZAR

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan xalqaro Olimpiada o'yinlarining tarixi haqida bilib qo'yganingiz, foydadan xoli bo'lmaydi.

Olimpiada o'yinlarini o'tkazish an'anasi — qadimgi Gretsiyada eramizgacha bo'lgan 776-yildan eramizning 394-yilgacha 293 marta greklarning muqaddas joyi — Olimpada o'tkazilgan. O'yinlarning nomlanishi ham Olimpdan olingan.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlariga XIX asrning oxirida fransuz jamoatchiligining arbobi Pyer de Kuberten tomonidan asos solindi. Yozgi Olimpiya o'yinlari 1896-yildan boshlab har to'rt yilda o'tkazib kelinadi. 1924-yildan esa qishki Olimpiya o'yinlari tashkil etildi va boshlanishida ular ham har to'rt yilda o'tkazilishi an'anaga aylandi.

Olimpiya o'yinlarining ramzi — besh qit'ani birlashtirgan Olimpiya halqasi hisoblanadi. Halqaning yuqori qator yo'lakchalari ko'k, qora va qizil rangda. Pastki qator yo'lakchalari sariq va yashil rangda. Ko'k halqa — Yevropa qit'asining ramzi. Sariq — Osiyo, qora — Afrika, yashil — Avstraliya, qizil halqa esa Amerika qit'asining ramzidir.

Qisqa tarixga nazar tashlasak, o'zbek sportchilarining Olimpiya o'yinlarida erishayotgan yutuqlaridan har qancha faxrlansak arziydi. Shu bugunga qadar sportchilarimiz tomonidan yozgi Olimpiada o'yinlarida 6 ta oltin, 5 ta kumush va 10 ta bronza medali qo'lga kiritildi.

5-avgustdan boshlab hammamizning nigohimiz Rio-de-Janeyroga qaratildi. Ushbu qizg'in va shiddatli kechayotgan musobaqalarda siz — yoshlarning aka va opalaringiz yurtimiz sha'nini munosib himoya qilishmoqda.

Yusufjon HAMDAMOV, O'zMU dotsenti

KATTA MUSOBAQA START OLDI

Olimpiadada ishtirok etish, unda yurt sharafini munosib himoya qilish har bir sportchi uchun ulkan baxtdir. Prezidentimizning 2013-yil 25-fevraldagi «O'zbekiston sportchilarini 2016-yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida»gi Qarori asosida mamlakatimiz sportchilari ushbu turnirga

muradov, bokschilarimizdan Shahobiddin Zoirov, Bektemir Meliqo'ziyev, Murodjon Ahmadaliyev, Bahodir Jalolov, Elshod Rasulovlardan faqat va faqat g'alaba kutishmoqda.

Ayni paytda sportchilarimiz Rio-de-Janeyro shahrida bayram ishtirokchilariga atab bunyod etilgan Olimpiya shaharchasida istiqomat qilishmoqda. Kuni kecha ushbu shaharchada sportchilarimiz sharafiga o'tkazilgan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangrab, yurtimiz bayrog'i ko'tarildi. Tadbirda basketbol bo'yicha Braziliya terma jamoasi tarkibida jahon chempionligini



jiddiy hozirlik ko'rishdi.

Dunyoning 206 mamlakatidan minglab sportchilar ishtirok etayotgan mazkur sport bayramida o'zbekistonlik atletlar akademik eshkak eshish, badiiy gimnastika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, boks, dzyudo, yengil atletika, og'ir atletika, sport gimnastikasi, stol tennis, suzish, taekvando (WTF), tennis, trampolin, o'q otish, erkin va yunonrum kurashi kabi bir nechta sport turlari bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazishadi. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz taekvando (WTF) bo'yicha amaldagi jahon chempioni Dmitriy Shokin, dzyudochilarimizdan Rishod Sobirov, Abdulla Tangriyev, sport gimnastikasidan Oksana Chusovitina, Anton Fokin, trampolin bo'yicha Yekaterina Xilko, sport kurashlaridan Elmurat Tas-

qo'lga kiritgan mashhur sportchi Janet dus Santush ishtirok etib, atletlarimizga ushbu yirik sport anjumanida omad yor bo'lishini tiladi.

— Madhiyamiz yangrab, bayrog'imiz baland ko'tarilganda, ko'z yoshlarimni tiyib tura olmadim. O'sha kezda tilimda faqat «Men Olimpiya o'yinlari chempioni bo'lib, yurtimga yorug' yuz bilan qaytishim kerak», degan so'zlar takror-takror aylandi. Nasib bo'lsa, eng ulug', eng aziz bayramimizga munosib sovg'a hozirlayman, — deydi taekvando (WTF) bo'yicha terma jamoamiz a'zosi Dmitriy Shokin.

Barcha sportchilarimizga XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida omad va zafarlar tilaymiz.

S. TURSINOV

SPORTCHI OILALAR BELLASHDI

MAHALLA PAHLAVONLARI

Mamlakatimiz Mustaqilligining 25 yillik tantanalari arafasida Andijonda qutlug' sanaga bag'ishlab «Sog'lom oila» shiori ostida «Otam, onam va men — sportchi oila» musobaqasi bo'lib o'tdi.

17 ta sportchi oilalar ishtirok etgan mazkur bellashuvda Baliqchi tumanidagi «Oqqo'rg'on» mahallasidan Abdug'afor Turg'unovlar oilasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qorasuv shahar «Paxtachi» mahallasidan Dilshodbek Qodirovlar 2-, Xo'jaobod tumani «Shahrixonsoy» mahallasidan To'rabek Sattorov oilasi 3-o'rinini egalladi.

Musobaqa g'oliblari tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Respublikamiz bo'ylab «Mahalla» xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi, viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida o'tkazib kelinayotgan musobaqa yildan yilga ommalashmoqda.

Jizzaxda kurash bo'yicha bo'lib o'tgan «Mahallamiz pahlavonlari» musobaqasida bellashuvning quyi bosqichlarida g'olib bo'lgan 13-14 yoshdagi 78 nafar o'g'il-qiz o'z vazn toifasida kuch sinashdi.

Zafarobodlik Davlat Narzullayev 46 kg vaznda o'g'il bolalar o'rtasida mutlaq g'olib bo'ldi. 50 va 55 kilogramm vaznda zarbdorlik Shahzod Jo'rayev, Mirzohid Xudoyorovga teng keladigan raqib topilmadi.

Qizlar o'rtasidagi bahslarda Mirzacho'l tumanidan Dislina Bochkova hamda Maftuna Navro'zova 44 va 52 kilogramm vazn toifasida g'oliblikni qo'lga kiritdi. 48 kilogramm vaznda paxtakorlik Charos Sulaymonova tengsiz deb topildi.

SH. G'ULOMOV



